

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogik instituti rektori
Sh.Sharipov
_____ 2021 yil

10.00.06-QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK
IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA
KIRUVCHILAR UCHUN “MUTAXASSISLIK FANI” DAN
SINOV DASTURI

Tuzuvchi: (PhD) A.X.Muhamedov

Taqrizchi: (PhD) N.Q. Bo‘riyeva

Imtihon komissiyasining 2021 yil “28” 2 -sonli qarori bilan tasdiqlangan

KIRISH

Yangi O'zbekistonning taraqqiy etishida zamonaviy malaka va bilimlarni mukammal egallagan raqobatbardosh kadrlarning o'rni beqiyosdir. Davlatimizning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy ravnaqida chet tillarni bilish bugungi kunning ustuvor vazifasilaridan biriga aylandi. Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish, til o'rganish va o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va metodlar foydalanish zaruriyati paydo bo'ldi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi rivoji va chet tillarni o'rganish sohasi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlari ham o'z maqsad va vazifalariga ega. Zotan, til va adabiyot azal-azaldan dunyo xalqlari iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodi, ilm-fani va madaniyatining gullab yashnashida mazkur sohalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet tillar bo'yicha nazariy bilimlarni egallash va mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini hosil qilish uchun dasturlarning ahamiyati kattadir. Yuqori malakali ilmiy-pedagogik mutaxassislarni tayyorlashda tayanch doktorantlar uchun dastur tuzish hozirgi kundagi ta'lim yo'nalishining dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan, shuningdek, hozirgi zamon ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasining fundamental muammolariga va tipologik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlariga, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslikning dolzarb muammolariga qaratilgan.

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

10.00.06-qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura institutiga kiruvchilar ushbu yo'nalishda qiyosiy adabiyotshunoslik, turli tillarning rivojlanishi, uning dialektik ko'rinishlari, leksik, grammatik, fonetik va frazeologik ko'rinishlari, tarjimashunoslikning dolzalb masalalari va ularning yechimlari, fanning o'ziga xos jihatlari haqidagi bilimlar bilan tanishadilar. Til xaqida obyektiv mulohaza yuritish, uning mazmuniy estetik jihatini xam nazarda tutgan holda nutqiy ifodaning ta'sirchanligini yuzaga keltiradigan lisoniy vositalarning tabiatini, ularning badiiy nutq tarkibida kasb etadigan qo'shimcha ma'no va ma'no belgilari xamda vazifalarini ham tahlil qilish orqali mukammal ilmiy xulosalar chiqaradilar.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Tayanch doktorantlar:

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlari va ingliz tili hamda uning rivojlanish bosqichlarini bilish va tahlil qila olish; ingliz, o'zbek, rus va boshqa milliy adabiyotlardagi yo'nalish va oqimlarning

evolyusion bosqichlarini qiyoslay olishi; muayyan mamlakat adabiyoti taraqqiyoti tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligini tushunish; turli davrga va turli milliy adabiyotlarga tegishli bo'lgan yirik adabiyot vakillari hayoti, ijodiy yo'li va asarlari bilan tanishish, tahlil qilish va ularning badiiy ahamiyatini tadqiq etishi; o'rganilayotgan adabiyotning milliy va madaniy xususiyatlarini farqlash, milliy adabiyotning jahon adabiyoti bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi tushunchalarni va umumjahon adabiy-tarixiy muammolarini qiyoslay olishi; ingliz tili paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, uning dialektik ko'rinishlarining o'ziga xosliklar haqida bilimga ega bo'lishi; til tizimi, tuzilishi, tillarning o'zaro aloqasi, tillar o'rtasidagi o'xshashlik xodisalari, tillarning leksik, grammatik, fonetik va frazeologik ko'rinishlarini qiyosiy tadqiq eta olishi; tillar integratsiyasi va differentsiyasi, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod, tillarning tipologik tasnifi, til tarixi va nazariyasi to'g'risida keng bilimni egallay olish, dunyo halqlari tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini bilishi; chet tilini o'rganish amaliyotida nazariy bilimlarni qo'llash, tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtai nazardan qarash, dunyo tilshunosligida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazardan tahlil qilish, tillarning umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish, tillarni qiyoslash sohasidagi nazariy bilimlarini ko'rsatish va chet tillar tuzilmalaridagi o'xshashlik va farqlarini o'zlashtirishi bilan birga to'g'ri foydalanish va malakasiga ega bo'lishi, qiyosiy tilshunoslikning fundamental masalalari bo'yicha nazariy bilim asoslarini bilish, turli ilmiy konsepsiyalarni tanqidiy baholash va ularni qiyoslanayotgan tillarning materiali asosida tahlil qilish, qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari, tipologik tadqiqotlar tarixi va metodlari; tipologik tadqiqotlarning prinsiplarini bilish, turli yo'nalish maktablarda qiyosiy tilshunoslik muammolarning talqin qilinishi, qiyosiy tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi va ularning qiyosiy tipologiyaga ta'sir qilish yo'llarini aniqlash, qiyosiy tilshunoslik fanining metodologiyasini qo'llay olish ko'nikmalarini xosil qilish, qiyosiy tilshunoslik fani bo'yicha yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning talqini bilish, tarjima metodlarini bilish va amaliyotda qo'llay olish, O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va lingvistik adabiyotlardan samarali foydalana olishi lozim.

10.00.06-QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUTAXASSISLIGI BO'YICHA MAVZULAR

Qiyosiy-tarixiy uslub tushunchasini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Qiyosiy-tarixiy jarayonlarni uyg'unligi. V.M. Jirmunskiy, N. I. Konrad, I.G.Neupokoyeva, D.Dyurishin. va A.N. Veselovskiylarning qiyosiy adabiyotshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Mifologik maktabning taraqqiyoti va uni qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri (Yakob va Vilgelm Grimm, A.Kun, M.Myuller, F.I.Buslayev, A.N.Afanasyev, O.F.Miller). Turli millat afsonalari umumiyligi. Madaniy-tarixiy maktab asoschilarini qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri (I.Ten, V.Sherer, G.Lanson, G.Brandes, J.Lyuis, A.N.Pipin, N.S.Tixonravov). Qiyosiy-tarixiy uslubni adabiyotlararo jarayonda rivoji. Tarixiy-tipologik konvergensiya. O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq

adabiyotining qiyosiy tahlili, taraqqiyot yo'nalishlari. Og'zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidadagi o'rni. Og'zaki xalq ijodi janrlari. Uyg'onish davri adabiyotining ahamiyati. Uyg'onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g'oyalarga ta'siri. Ma'rifatparvarlik adabiyoti mutafakkirlari - Klod Gelvetsiya va Iogann Vinkelman. Adabiyotshunoslik asoschisi - Iogann Gerder (1744-1803).

Adabiyotshunoslikning tarixiy fan sifatida taraqqiyoti. Gegelning (1770-1832) hayotni dialektik anglash konsepsiyasi, san'atda ma'no va shakl, qarama qarshiliklar qonuniyatiga munosabati. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g'oyalarga ta'siri. XIX asr mutafakkirlari pozitsiyasining qiyosiy-chog'ishtirma tahlili. Gegelning adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va g'oyalari ahamiyati. Ogyusta Kontning (1798-1857) ijobiy (pozitiv) falsafasi. Induktiv-deduktiv umumlashtirish tamoyili. Metafizik qarashlar. Germaniya adabiyotshunosligida (Yakob va Vilgelm Grimm) pozitivizm taraqqiyoti. Formalizm va strukturalizm rivoji. T.Benfey g'oyalari va o'zlashtirish nazariyasi. AQSH (R.Uellek. V.Friderix) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari. Adabiy oqimlar va yo'nalishlar. Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo'nalishlari xususiyatlari. Realizmning adabiy yo'nalishlari. Modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. San'atda va hayotda shakl va ma'no tushunchasi. Shakl va ma'no o'rtasidagi munosabat. Asarning «ichki shakl» va «tashqi shakl» va uning san'at va adabiyotda mazmuni. San'at hayotni anglash vositasi. San'at – borliqni va ijtimoiy ong taraqqiyoti omili. Badiiy ijodda ma'no va shakl. Asarning obyektiv g'oyasi va muallif g'oyasi. Xarakter, kompozitsiya va syujet. Badiiy tasvirning estetik ahamiyati. Tasvirning hayotiyligi va xalqchilligi. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli. Badiiy asarning lisoniy xususiyatlari. Badiiy asarlarda adabiyotlararo dialogizm masalasi. Muallif obrazining badiiy asarda aks etishi. So'zlarning ko'chma ma'nosi (troplar va ularning turlari). Intonatsiya va sintaksis. Lingvokulturologik aspektida so'zlarning ko'p ma'noliligi. Adabiyotshunos olimlarning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ularning g'oyalari. Angliya adabiyotshunoslik maktablari, Germaniya (M.Kesting, K.Vays, K.Xamburger) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Fransiya (Klod Pishua, Anri Granjar) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Slovakiya (D.Dyurishin), Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Tilshunoslikda germanistika va slavistika. Sanskrit va F. Bopp qiyosiy grammatikasi. V. Gumboldt falsafasi. A. Shleyxer ta'limoti. G. Shteyntal ta'limotida til va halq psixologiyasi. Boduen de Kurtene va F. De Sossyur ta'limotida til sistemasi. Bilish usullari va tilshunoslik metodlari. Tilni o'rganish metodologiyasi va metodlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Struktur metod va uning yo'nalishlari. Funktsional lingvistika. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari. Distributiv tahlil metodi. Transformatsiya metodi.

Tasviriy metodning asosiy usullari. Paradigma usullari va paradigmatic metodika. Oppozitsiya usuli. Semantik maydon usuli. Pozitsion usullar. O'zgartirishlar usuli va transformatsion metodika. Statistik usullar. Qiyosiy tilshunoslikning paydo bo'lish sabablari. Qiyosiy metodning universallik xususiyati. Lingvistik va nolingvistik tipologiya. Qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari. Tipologik kategoriyalar. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo'llanilishi. Qiyosiy tipologiyaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari va faktorlari. Tillarning geneologik tasnifi, tillar qarindoshligi haqida ma'lumot. Qiyosiy tipologiyaning asosiy parametrlari. Izomorfizm va allomorfizm xususiyatlari. Qiyoslashda sinxron va diaxron yondashish. Tillararo va bir til ichidagi qiyoslash xususiyatlari. Qiyosiy tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati. Barcha til tizimlari uchun mushtarak bo'lgan belgilarni ifodalashdagi muvofiqlik va nomuvofiqlik. Lingvistik tushunchalarni tilning turli yaruslarining o'lchov birliklari va konstituentlari orqali ifodalanishi. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari. Grammatik kategoriya haqida ta'limot. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o'rtasidagi mutanosiblik. Tushuncha kategoriyalar. Funktsional-semantik kategoriyalar. Grammatik-leksik maydon. Tipologik ma'no va tipologik forma. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so'z turkumlariaro xususiyatlari. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi. Ifoda planidagi til tizimi o'lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taksonomik masalalari. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari. Turli qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi ayrim xususiyatlarni fonologik, grammatik, semantik, etimologik, leksik va stilistik nuqtai nazardan qiyoslash. Interferensiya muammolari. Qiyosiy tipologiyaning leksikografiya, stilistika, tarjima nazariyasi va til o'qitish metodikasi kabi fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo'llanilishi. Til va madaniyat. Qiyoslanayotgan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarining barcha til sathlarida namoyon bo'lishi. Kognitiv tilshunoslik haqida ta'limot. Qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari. Tipologik tadqiqotlarning hozirgi yo'nalishlari haqida. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi, uning asosiy parametrlari. Tarjima jarayonining bosqichlari. Tarjima muqobilligi. Tarjimada leksik muammolar. Tarjima tarixining nazariy masalalari. Jahon tarjimachiligida tarjima maktablari. Tarjimaning grammatik masalalari. Tarjimaning stilistik masalalari. Tarjimada lingvistik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondoshuvning ahamiyati. Tarjima va leksikografiya. Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalarning qo'llanilishi. Semantik va stilistik ekvivalentlik. Adekvat tarjima tamoyillari.

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati: Asosiy adabiyotlar:

1. Comparative literature in the age of multiculturalism. Edited by Carles Bernheimer. The John Hopkins University Press. London 1995
2. Osnovi sravnitel'nogo i sopostavitelnogo literaturovedeniya: ucheb. posob./ Kazan. gos. un-t, Filol. fak., Kaf. sopostav. filol. i mejkultur. kommunika- sii; avt.-sost. V.R.Amineva; nauch. red. D.F.Zagidullina.– Kazan: Kazan. gos. un- t, 2007. – 480 s.
3. Shaytanov I.O. Komparativistika i/ili poetika: Angliyskiye syujetiglazami istoricheskoy poetikiM.: RGGU, 2010. — 656 s.
4. Grinser P.A. Epoxi vzaimodeystviya literatur Vostoka i Zapada. Nauchnoye izdaniye. M.: Rossiysk. gos. gumanit. un-t, 1997. 51 s.
5. Selitrina T.L. Preyemstvennost literaturnogo razvitiya i vzaimodeystviye literatur. M.: Visshaya shkola, 2009. — 290 s.
6. Teoreticheskiye osnovi sravnitel'nogo i sopostavitelnogo literaturovedeniY. Uchebnoye posobiye. Kazan: Kazan. un-t, 2014.- 105 str
7. Arakin V.D. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i russkogo yazikov. - M.: Prosvesheniye, 1990.
8. Abduazizov A.A. Elementi obshey i sravnitel'no-tipologicheskoy fonologii. - T.: Fan, 1981.
9. Buranov J. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazikov. - M.: Visshaya shkola, 1983.
10. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. - T.: O‘qituvchi, 1973.
11. Koduxov V.I. Obsheye yazikoznaniye. - M., 2009.
12. Rasulova M.I. Osnovi leksicheskoy kategorizatsii v lingvistike. -T.: Fan, 2005.
13. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent. 1983.
14. Yusupov U.K. Problemi sopostavitel'noy lingvistiki. - T.: Fan, 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. 2009, Gale. USA
2. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
3. Claudio Guillén. The Challenge of Comparative Literature. 1993, Harvard University Press. England
4. Shunqing Cao. The Variation Theory of Comparative Literature. Shuan University China. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2013. Theories of Comparative Literature - South Valley University
5. Pogrebnaya Y.V. Sravnitel'no-istoricheskoye literaturovedeniye. Uchebnoye posobiye / – 2-ye izd., stereotip. – M. : FLINTA, 2011. – 84 s.

6. Gilenson B.A. Istoriya zarubejnoj literaturi konsa 19 nachala 20 veka. Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / Pod red. - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2008. — 480 s
7. Kutafina Y. N. Sovremenniy zarubejniy roman XX veka: osobennosti razvitiya: uchebnoye posobiye. - Yelets: YEGU im. I.A. Bunina, 2007. - 101s.
8. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoye literaturovedeniye. Vostok i Zapad. – L., 1979.
9. Veselovskiy.A.N. Sravnitelnoye literaturovedeniye[1939-1940]; Literaturniye techeniya kak yavleniye mejdunarodnoye[1867]
10. Aleksandr Dima. Prinsipi sravnitel'nogo literaturovedeniya. – M., 1977.
11. Grinser P.A. Sravnitelnoye literaturovedeniye i sanskritskaya poetika. – M., 2013.
12. Abdullayev Y.N., Bushuy A.M. Inostranniye yaziki v sovremennom mire: evolyusiya metodiki obucheniya. - T.: Fan, 2000.
13. Abdullayev Y.N., Bushuy A.M. Yazik i obshestvo. - T.: Fan, 2002.
14. Borisova I.F., Imyaminova SH.S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent. 2005.
15. Boldirev N.N. Kognitivnaya semantika. Kurs leksiy po angliyskoy filologii. - Tambov, 2001.
16. Bondarko A.V. Semanticheskiye kategorii v aspekte sopostavitelnix issledovaniy // Sopostavitelnaya lingvistika i obucheniye nerodnomu yaziku. -M.: Nauka, 1987.
17. Vejbitska A. Semanticheskiye universalii i opisaniye yazikov. - M., 1999.
18. Gak V.G. Sopostavitelnaya pragmatika // Filologicheskkiye nauki. – M., 1992. - №3.
19. Grammatika obshaya i ratsionalnaya Por-RoyalY. - M.: Progress, 1990.
20. Jurinskaya M.I. Lingvisticheskaya tipologiya. Obsheye yazikoznaniye. Vnutrennyaya struktura yazika. - M.: Nauka, 1972.
21. Guliga YE.V., Shendels YE.I. Grammatiko-leksicheskiye polya v sovremennom nemetskom yazike. - M.: Prosvesheniye, 1969.
22. Kognitivniye i kommunikativniye aspekti angliyskoy leksiki. - M., 1990.
23. Kolshanskiy G.V. Problema universalii yazika // Obsheye yazikoznaniye. Vnutrennyaya struktura yazika. - M.: Nauka, 1972.
24. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. 2-ye izdaniye. - M.: 2004.
25. Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. 2005.
26. Novoye v zarubejnoj lingvistike. Vip. 23. Kognitivniye aspekti yazika. - M.: Progress, 1980.
27. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. - Minsk, 2004.
28. Prinsipi tipologicheskogo analiza yazikov razlichnogo stroya. – M.: Nauka, 1972.
29. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax. «Sangzor» - 2006.
30. Seliverstova O.N. Kontrastivnaya sintaksicheskaya semantika. Opit opisaniya. - M.: Nauka, 1990.
31. Semantika i kategorizatsiya. - M.: Nauka, 1991.

32. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent. 1978.
33. G'afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. - Toshkent. 2008.
34. Fillmore Charles J. Remarks on Contrastive Pragmatics //In - J.Fisiak (ed.), Contrastive Linguistics- Prospects and Problems. - Padstow, 1984.

Internet saytlar

1. http://teoria-practica.ru/rus/files/arhiv_zhurnala/2011/6/filologiya/galay.pdf
2. <http://www.uz-translations.net>
3. <http://www.booksbooksbooks.ru>
4. <http://www.literature-online>
5. <http://www.twirpx.com/file/546814/>
6. <http://download.springer.com/static/pdf/909/bfm%253A978-3-642-34277-6%252F1>.
7. http://www.svu.edu.eg/links/ictp/e_learning/links/courses/dr_%20khalil/THEORIES%20OF%20C%20L.3.pdf
8. http://www.lihachev.ru/pic/site/files/lihcht/2012_Sbornik/2012_Dokladi/202plen/028_2012_plen.pdf
9. http://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/21473/10_153_A5-000526.pdf